

XX-ASR 90-YILLARIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIGA MUNOSABATLARNING TARIXIY-QIYOSIY TAXLILLARINING BA'ZI JIHATLARI

Axmedov Jalol Tursunmuratovich

Jizzax politexnika instituti,

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Sabdenova Gulmira Esbatirovna

Farobiy nomidagi Qozog‘iston Davlat universiteti

“Butunjahon tarixi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: XX-asr 90-yillarida Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga munosabatlarning tarixiy-qiyosiy taxlillari borasida bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi va ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqot doirasida ko‘p millatli mintaqa etnosiyosatining muhim jihatlari haqida fikr-mulohazalar haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, tarix, millat, elat, millatlararo munosabatlar, titul millat, o‘troq, ko‘chmanchi, milliy siyosat.

SOME ASPECTS OF THE HISTORICAL-COMPARATIVE ANALYSIS OF THE RELATIONS TO THE HISTORY OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA IN THE 90S OF THE 20TH CENTURY

Akhmedov Jalal Tursunmuratovich

Jizzakh Polytechnic Institute,

Teacher of the "Social Sciences" department

Sabdenova Gulmira Esbatirovna

Kazakhstan State University named after Farobi

Associate Professor of "World History" Department

Abstract: In the 90s of the 20th century, a number of scientific and research works are being carried out on the historical and comparative analysis of the relations to the history of the peoples of Central Asia. In Central Asia,

inter-ethnic relations are of particular importance and cause many discussions. Within the framework of the study, information is given about opinions about the important aspects of the ethnopolitics of the multi-ethnic region.

Key words: Central Asia, history, nation, people, inter-ethnic relations, title nation, settler, nomad, national policy.

Jahon mintaqashunoslik va madaniy antropologiya yoʻnalishlarida turli mintaqalarni, xususan, Evrosiyo mintaqasining muayyan bir qismi boʻlmish Markaziy Osiyoni har tomonlama oʻrganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari bugungi kunda katta eʼtibor qaratilayotgan sohalardan biridir.

Bir tomondan dunyo xalqlari orasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy jihatdan oʻzaro yaqinlashuv, ikkinchi tomondan esa dunyoning yirik siyosiy kuchlari orasida hududiy ustunlikka daʼvo qilish kabi bir-biriga qarama-qarshi yondashuvlar tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda Markaziy Osiyo respublikalarida shakllanayotgan muhit mintaqashunoslik maktablari, geosiyosiy tahlilchilar eʼtiborini tortmoqda. Mintaqa xalqlarining jahon xalqlari integratsiya boʻlishi aynan shu jarayonlarning qanday kechishi va kelajagini qanday tartibda belgilab olishlariga bogʻliq. Umumjamiyat dunyoqarashini belgilash va uni jahon tarixi bilan uygʻunlashtirish esa tarixiy voqeliklarga obektiv yondashuvni talab qiladi.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida Oʻzbekiston tarixchilar jamoasi mintaqa xalqlarining umumiy tarixini yozish, mintaqada kechgan tarixiy voqeliklarni yoritishda noxolislikka yoʻl qoʻymaslik, qaysi millat qadimiy va tubjoy aholi, qaysisi esa kelgindi, kim oʻtroq, kim esa koʻchmanchi kabi biryoqlama yondashuvlarning oldini olish payti etib kelganini ilgari surib, bu masalada amaliy ishlarni boshlab yuborganliklari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, respublikaning etakchi tarixchi, manbashunos va arxeolog olimlari bu kabi masalalarda ayrim qoʻshni respublikalarda bildirilayotgan noxolis yondashuvlarga allaqachon oʻz munosabatlarini bildirib ulgurishdi. YAʼni

olimlarimiz bu kabi tortishuvlarning oxiri yoʻqligi, tarixni biryoqlama yoritish birlashishga emas, parokandalikka olib kelishini his qilgan holda Markaziy Osiyo xalqlari umumiy tarixini yozish payti kelganiga eʼtibor berishlari tanlab olinayotgan mavzuning dolzarbligini yana bir karra isbotlab turibdi. Ushbu tadqiqot mavzusiga aloqador boʻlgan ilmiy adabiyotlarni quyidagi ikki guruhga boʻlib oʻrganish mumkin: 1) mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo respublikalarida yaratilgan ishlar. 2) Xorijda nashr etilgan asarlar. SHuningdek, mintaqa xalqlari tarixini yoritishdagi yondashuvlar “pozitiv” va “negativ” xususiyati bilan ham ajralib turadi.

Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar Oʻzbekiston Respublikasining mustaqil taraqqiyoti davrida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlaridir. Istiqlol yillarida oʻzbekistonlik E. Rtveladze, A. Asqarov, A. Sagdullaev, SH. Kamoliddin, Oʻ. Mavlonov, B. Eshov, A. Xoʻjaev, A. Otaxoʻjaev, A. Malikov, Gʻ. Boboyorov, B. Gʻoyibov, A. Kubatin kabi tarixchi, qadimshunos va elshunos olimlarning tadqiqotlarida bu masalaga u yoki bu darajada toʻxtalib oʻtilgan [1]. Ushbu tadqiqotchilar oʻrganilayotgan mavzuga toʻgʻridan-toʻgʻri toʻxtalmagan boʻlsalar-da, bir qator oʻrinlarda mintaqa xalqlari tarixining qadimgi va ilk oʻrta asrlar davri ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlariga eʼtibor qaratganlar.

Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida ham bu masalaga turlicha yondashilgan boʻlib, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Tojikistonda nisbatan keng koʻlamli, Turkmanistonda esa birmuncha kam sonli izlanishlarning amalga oshirilganiga guvoh boʻlish mumkin. Ular orasida tojikistonlik M. Isomatov, qozogʻistonlik K. Baypakov, A. Kamalovlar mintaqa xalqlarining qadimgi va ilk oʻrta asrlar davri tarixi, turk-sugʻd aloqalari kabi masalalarga ancha keng toʻxtalib oʻtishgan [2].

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining nazariy masalalari boʻyicha Rossiya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH va boshqa xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan tadqiqotlarda qisqacha toʻxtalib oʻtilgan. Ular orasida tarixchi va jamiyatshunos olimlar E. Ollvort, J. An Gross, A. Xaugen, A. Xalid, X.

Komatsu, S. Abashinlarning [3] ishlari alohida ajralib turadi. Ushbu mualliflarning tadqiqotlari mazkur masalaga obektiv yondashilganligi, mahalliy tarixchilar orasidagi bahs-munozaralarga o'z munosabatlarini bildirib o'tganliklari bilan ahamiyatlidir. Mintaqashunos ushbu izlanuvchilar mintaqa xalqlari tarixining asosan yaqin o'tmishini yoritgan.

Mintaqaning qadim va o'rta asrlar tarixi bo'yicha ham ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan xorij tadqiqotchilari orasida yaponiyalik Y. Markvart, R. Fray, YO. YUtaka, ingliz N. Sims-Vilyams, fransuz F. Grene, E. de la Vessyer, rus P. Lurye, amerikalik A. Naymark va boshqalarning izlanishlari mintaqa xalqlari tarixining islomdan oldingi tarixini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadi [4]. Ular orasida F. Grene va E. de la Vessyerlar ilk o'rta asrlarda Sug'd, xususan, Panch va unga qo'shni hukmdorliklarda xoqonlik boshqaruvi masalasini ancha keng yoritganliklari diqqatga sazovordir. SHuningdek, N. Sims-Vilyams va YO. YUtaka sug'diycha hujjatlarning tilshunoslik tomonlarini o'rganar ekan ayrim o'rinlarda turkiy va sug'diy unvonlar, boshqaruv tizimi kabi masalalarga ham e'tibor qaratishgan [5]. Sug'diy yozuvli manbalarda uchraydigan kishi ismlari bo'yicha izlanishlar olib borgan P. Lurye esa ko'plab turkiy unvonlarni ko'rsatib bergan. Ushbu tadqiqotchilarning izlanishlari ham tanlab olinayotgan mavzuga bevosita emas, bilvosita aloqador bo'lib, mintaqa tarixining muayyan bir davrlarini qamrab olgan.

YUqoridagi mualliflarning tadqiqot va asarlarida Markaziy Osiyoda mintaqa xalqlari tarixining yoritilishi masalasiga to'xtab o'tilgan bo'lsa-da, bu borada umumlashtiruvchi maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Bu esa tanlab olingan mavzuning dolzarbligini belgilaydigan omillardan hisoblanadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, olib borilayotgan tadqiqotning ilmiy yangiligi borasida quyidagilardan iboratligi belgilab olindi:

Markaziy Osiyoda tarixini yoritishda sinfiy yondashuvdan voz kechilgan holda ilmiy yangiliklar va yutuqlar qo'lga kiritilgani, shu bilan birga, tarixiy

voqeliklarga regional (mintaqa ko‘lamida) emas, izolatsiyalangan holda yoritish kabi biryoqlama yondashuvlar kelib chiqqani aniqlangan;

- mintaqa xalqlari tarixi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning sezilarli bir qismida umumiy tarix tushunchasidan ko‘ra ko‘proq mahalliychilikka urg‘u berilgani – ayrimlarida mifologiya bilan real voqeliklar aralashtirib yuborilgani, o‘zlari ega bo‘lib turgan etnonimlarni “muqaddaslashtirish”, mintaqadagi boshqa etnoslarga nisbatan bepisand yondashib, “yaqinda paydo bo‘lgan”iga urg‘u berish kabi hollar uchragani dalili;

- mintaqaning O‘zbekiston va Tojikiston respublikalarida o‘troqlik, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi respublikalarida esa nomadizm masalasiga katta urg‘u berilishi, avtohtonlik va etnik tarix masalasida farqli yondashuvlarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib berilgan;

- keyingi yillarda mintaqa xalqlari tarixini yoritishda obektiv yondashuvlarning kuchayayotgani, Markaziy Osiyo respublikalarining ilg‘or fikrli tadqiqotchilari masalaga “yagona makon”, “yagona tarix”, “umumiy tarix – umumiy kelajak” tamoyillari asosida yondashilayotgani yagona mintaqaviy o‘zlik yaratishga intilgan tadqiqotlar ko‘payayotgani misolida isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdulleev E.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: Adolat, 2001;

2. Sulaymanov O. «AZ i YA. Kniga blagonamerennogo chitatelya». – Alma-Ata, 1975; Masov R.M. Istoriya topornogo razdeleniya.

3. Gross Jo-Ann. Muslims in Central Asia // E.J. Lazzerini. Beyond Renewal: The Jadid Response to Pressure for Change in the Modern Age. – Durham and London, 1992.

4. Xolid A. O‘zbekistonning tavalludi: Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

5. Abashin S. N. Sotsialnye korni sredneaziatskogo islamizma // Identichnost i konflikt v postsovetskix gosudarstvax / M. B. Olcott, V. A. Tishkov, A. V. Malashenko (red.). – M.: [Moskovskiy sentr Karnegi](#), 1997.